



CITIES OF THE TASHKENT OASIS LOCATED ON THE SILK ROAD

N. Eshmatova

Leading Specialist of the Tashkent Museum, Branch of the History
Museum of Uzbekistan

Tel: +998998554263

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474994>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Tashkent Oasis, Great Silk Road, Kanka, Shahrukhiya, Shoshtepa, Mingo'rik, Choch State, archaeology, cultural heritage.

ABSTRACT

This article examines the role of the Tashkent Oasis within the network of the Great Silk Road, focusing on the formation and development of its ancient cities, as well as their economic and cultural significance. Special attention is given to the archaeological analysis of major urban centers such as Kanka, Shahrukhiya, Shoshtepa, and Mingo'rik. The study demonstrates that the Tashkent Oasis served as a central hub for trade, religion, and cultural exchange between East and West along the Silk Road.

ГОРОДА ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА НА ШЕЛКОВОМ ПУТИ

Н. Эшматова

Ведущий специалист Ташкентского музея, филиала Музея истории Узбекистана

Тел.: +998998554263

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474994>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Ташкентский оазис, Великий шёлковый путь, Канка, Шахрухия, Шоштепа, Минг Урик, государство Чач, археология, культурное наследие.

ABSTRACT

В статье рассматривается значение Ташкентского оазиса в системе Великого шёлкового пути, этапы формирования и развития древних городов региона, а также их роль в экономической и культурной жизни. Основное внимание уделено археологическому изучению таких центров, как Канка, Шахрухия, Шоштепа и Минг Урик. Результаты исследования показывают, что Ташкентский оазис являлся важным узлом торговли, религиозных и культурных связей между Востоком и Западом.

TOSHKENT VOHASINING IPAK YO'LIDA JOYLASHGAN SHAHARLARI

N. Eshmatova

O'zbekiston tarixi muzeyi filiali Toshkent muzeyi yetakchi mutaxassisi

Tel: +998998554263

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17474994>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 24th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 29th October 2025

KEYWORDS

Toshkent vohasi, Buyuk Ipak yo'li, Qanqa, Shahruhiyya, Shoshtepa, Mingo'rik, Choch davlati, arxeologiya, madaniy meros.

Ushbu maqolada Toshkent vohasining Buyuk Ipak yo'li tizimidagi o'rni, vohada joylashgan qadimiy shaharlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, ularning iqtisodiy hamda madaniy hayotdagi ahamiyati tahlil qilingan. Asosiy e'tibor Qanqa, Shahruhiyya, Shoshtepa va Mingo'rik kabi yirik shaharlarning arxeologik manbalar asosida o'rganilishiga qaratilgan. Tadqiqot natijalari Toshkent vohasi Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo, madaniy va dini aloqalarda markaziy o'rin tutganini ko'rsatadi.

KIRISH.

Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi yirik iqtisodiy hamda madaniy hudud bo'lib kelgan. Bu mintaqa orqali o'tgan tarixiy yo'nalishlar orasida Buyuk Ipak yo'li alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Toshkent vohasi – qadimgi Choch davlati markazi sifatida – ushbu xalqaro karvon yo'lining shimoliy tarmog'ida muhim strategik va madaniy markazlardan biri bo'lgan[1, 7-bet].

Toshkent vohasi geografik jihatdan qulay sharoitda joylashgan: u shimolda cho'l hududlar, janubda esa tog' tizmalari bilan chegaralangan, suv resurslariga boy va qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan makon edi. Shunday tabiiy imkoniyatlar bu yerda qadimiy shahar madaniyatining erta shakllanishiga sabab bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar Qanqa, Shoshtepa, Mingo'rik, Shahruhiyya singari qadimiy shaharlarning aynan shu vohada joylashganini tasdiqlaydi[2, 15–17-betlar].

Ipak yo'li nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, diniy va ilmiy almashinuvning ham vositasi sifatida shakllangan. Bu yo'l orqali Sharqdan G'arbga ipak, chinni, ziravor, qimmatbaho toshlar tashilgan bo'lsa, G'arbdan Sharqqa metall buyumlar, vino, shisha va madaniy g'oyalar kirib kelgan. Toshkent vohasi esa bu jarayonlarda tranzit nuqtadan tashqari, mustaqil ishlab chiqarish va savdo markazi sifatida ham faol ishtirok etgan[1, 23-bet].

Toshkent vohasi shaharlarining rivojlanish bosqichlari I bronza davridan boshlangan bo'lib, keyinchalik temir davrida, xususan miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida shakllangan ilk urbanistik markazlar orqali mustahkam asosga ega bo'lgan[2, 6–8-betlar]. Milodiy I–VII asrlarda esa Choch davlati siyosiy jihatdan kuchayib, Buyuk Ipak yo'lining shimoliy yo'nalishidagi eng muhim savdo punkti sifatida tanilgan [3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Toshkent vohasining qadimgi shaharlari hozirgi zamon O'zbekiston tarixida shahar madaniyati, savdo-sotiq, xalqaro aloqalar va madaniy integratsiya jarayonlarining ildizlarini o'rganishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ushbu maqolada Toshkent vohasining Ipak yo'li tizimidagi o'rni, uning asosiy shahar markazlarining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti ilmiy manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilindi.

Toshkent vohasining tabiiy-geografik sharoiti va Ipak yo'li yo'nalishlari.



Toshkent vohasi O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy qismida, Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan bo'lib, u qadimdan Choch nomi bilan mashhur bo'lgan. Vohaning tabiiy-geografik tuzilishi – unumdor yerlar, suv manbalari va qulay iqlim – bu hududda qadimiy shahar madaniyatining erta shakllanishiga imkon yaratgan. Sharqdan Chotqol va Kurama tog' tizmalari, g'arbdan esa keng Turon pasttekisligi bilan chegaralangan bu voha qadimda savdo va karvon yo'llarining tutashgan nuqtasi edi[2, 4–6-betlar].

Y.F. Buryakov ta'kidlaganidek, Sirdaryo – qadimgi manbalarda Yaksart yoki **Ioshashuy** nomlari bilan tilga olinadi – Toshkent vohasining iqtisodiy hayotida hal qiluvchi o'rin tutgan. U nafaqat suv manbai, balki qadimiy karvon yo'llarining tabiiy yo'nalishini belgilab bergan. O'rta asr geograf va tarixchilari – Istaxriy, Ibn Havqal va Yoqut al-Hamaviylar asarlarida Sirdaryo “turk shaharlarini birlashtiruvchi daryo” sifatida tasvirlangan[2, 5-bet]. Shu bois, daryo atrofidagi joylar – Choch, Ilak va Farg'ona oralig'i – qadimiy davrdan savdo va madaniy aloqalarning faol markaziga aylangan.

Buyuk Ipak yo'lining Toshkent vohasi orqali o'tuvchi tarmoqlari haqida Ablat Xo'jayev quyidagicha yozadi: “Choch orqali o'tuvchi yo'l Sharqiy Turkiston va Farg'onadan chiqib, Toshkent orqali O'tror, Sirdaryo vodiysi hamda keyinchalik Xorazmga ulanardi”[1, 38-bet]. Demak, Toshkent vohasi karvonlarning Sharqdan G'arbga yo'nalgan asosiy yo'lida joylashgan bo'lib, bu yerda karvonsaroylar, savdo rastalari, diniy markazlar va himoya qal'alari shakllangan.

Toshkent vohasining bu geografik afzalligi sababli vohada nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va dini almashinuv ham yuz bergan. Bu yer orqali buddaviylik, zardushtiylik, so'ngra islom madaniyati kirib kelgan. Ipak yo'li shaharlarida topilgan yozma yodgorliklar, sopol muhrlar va bezakli tangalar bu madaniy qatlamlarning izini aniq ko'rsatadi[2, 23–25-betlar].

Toshkent vohasining tabiiy resurslari – tog'-kon boyliklari, dehqonchilik uchun qulay yerlar va o'tloqlar – shaharlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlagan. Chotqol va Kurama tog'laridan oltin, kumush, temir va mis qazib olinib, bu mahsulotlar Ipak yo'li orqali boshqa mintaqalarga eksport qilingan[2, 6-bet]. Shu bilan birga, vohaning markaziy qismi – Choch o'lkasi – o'zining “sug'oriladigan dehqonchilik madaniyati” bilan ajralib turgan.

Xullas, Toshkent vohasi tabiiy-geografik jihatdan Ipak yo'li uchun tabiiy bog'lovchi hudud bo'lib xizmat qilgan. Uning o'ziga xos joylashuvi Sharq va G'arbn, dasht va vohani, ko'chmanchi va o'troq madaniyatlarni tutashtirgan. Shu sababli, bu yerda shahar madaniyati nafaqat iqtisodiy ehtiyojdan, balki madaniy sintez jarayonidan kelib chiqqan[1, 44-bet].

Toshkent vohasining qadimgi shaharlari: Qanqa, Shahruhiyya, Shoshtepa va Mingo'rik. Toshkent vohasi – qadimgi Choch mamlakatining yuragi bo'lgan. Bu yerda shakllangan yirik shaharlardan Qanqa, Shahruhiyya, Shoshtepa va Mingo'rik nafaqat mahalliy iqtisodiy hayot, balki Buyuk Ipak yo'lining xalqaro savdo tizimi uchun ham muhim bo'lgan markazlar sifatida tarixda iz qoldirgan.

Qanqa – Qang' davlatining qadimiy poytaxti. Arxeolog Y.F. Buryakov Qanqani “Choch davlatining birinchi siyosiy markazi” deb ataydi[2, 3-bet]. Bu yodgorlik Toshkent vohasining janubiy qismida, hozirgi Ohangaron vodiysi yaqinida joylashgan bo'lib,



miloddan avvalgi I ming yillik oxirida shakllangan shahar madaniyatining markazi sifatida tanilgan. Buryakovning fikricha, Qanqaning rivojlanishi Sirdaryo bo'yidagi strategik joylashuvi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. U savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan bo'lib, Ipak yo'li karvonlari uchun tranzit va bojxona markazi sifatida xizmat qilgan[2, 10–12-betlar].

Qanqa arxeologik jihatdan uch qismdan iborat: qal'a, shahriston va rabod. Qal'a – hukmdor saroyi va ma'muriy binolar joylashgan qism; shahristonda hunarmandchilik va savdo rastalari, rabodda esa aholi yashash joylari bo'lgan. Qazilmalarda topilgan tangalar, metall buyumlar va sopol idishlar bu yerda yuqori darajadagi hunarmandchilik rivojlanganini ko'rsatadi[2, 28–30-betlar].

Qanqada topilgan tangalarda "Choch hukmdori" degan yozuvlar, turli hayvon va quyosh ramzlari tasviri o'sha davrdagi siyosiy mustaqillik va diniy e'tiqodlarni yoritadi. Bu topilmalar asosida Buryakov shunday xulosa qiladi: "Qanqa – shahar madaniyati bilan siyosiy hokimiyat uyg'unlashgan ilk markazlardan biridir"[2, 32-bet].

2.2. Shahruhiyya – Ipak yo'lining chegara qal'asi. Toshkent vohasining shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan Shahruhiyya shahri (hozirgi Yangiyer yaqinida) Chochning eng yirik harbiy va savdo markazlaridan biri bo'lgan. Bu shahar Sirdaryo bo'yidagi o'tish nuqtalarini himoya qilgan va Buyuk Ipak yo'lining "daryo yo'nalishi" ustidan nazoratni ta'minlagan[2, 15–16-betlar].

Buryakovning ma'lumotiga ko'ra, Shahruhiyya "katta qal'a devorlari bilan o'ralgan, ichki qismida esa saroy, masjid, ustaxona va saqlash omborlari joylashgan shahar" bo'lgan[2, 42-bet]. Qazilmalarda topilgan sopol tangalar va metall asboblar bu yerda rivojlangan iqtisodiy faoliyatni tasdiqlaydi. Shahar, shuningdek, karvonlar uchun "dam olish va ta'minot punkti" sifatida ishlatilgan.

Shahruhiyya savdo yo'llari orqali Qanqa bilan bevosita bog'langan bo'lib, bu ikki markaz o'rtasida iqtisodiy va ma'muriy aloqalar mavjud bo'lgan. Ablat Xo'jayev ta'kidlaganidek, "Shahruhiyya – Ipak yo'li bo'ylab o'tuvchi karvonlarning Sirdaryodan o'tish darvozasi vazifasini bajargan"[1, 41-bet].

Shoshtepa – Toshkent shahrining qadimgi yadrosi. Hozirgi Toshkent shahrining janubiy hududida joylashgan Shoshtepa miloddan avvalgi VI–IV asrlarda shakllangan qadimiy manzilgoh bo'lib, keyinchalik shahar rivojining markaziga aylangan. Shoshtepa arxeologik qatlamlarida topilgan kulolchilik buyumlari, metall qurollar va o'choq izlari bu hududda muntazam ishlab chiqarish faoliyati bo'lganini ko'rsatadi[2, 8–9-betlar].

Shoshtepa nomi "Shosh" atamasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, keyinchalik bu nom butun vohaga – "Shosh viloyati" deb atalgan hududga – berilgan. Shoshtepa nafaqat savdo nuqtasi, balki siyosiy va diniy markaz sifatida ham muhim bo'lgan. Bu yerda topilgan zardushtiylik yodgorliklari – otashkadalarning izlari – diniy amaliyotlarning mavjudligini ko'rsatadi[2, 27-bet].

Mingo'rik – shaharlik madaniyatning davomiy markazi. Mingo'rik – Toshkentning eng qadimgi va uzluksiz yashab kelingan manzilgohlaridan biridir. Ablat Xo'jayev bu joyni "Ipak yo'lining Toshkent bo'ylab o'tuvchi tarmog'idagi asosiy madaniy markaz" sifatida qayd etadi[1, 52-bet]. Qazilmalarda topilgan sopol buyumlar, kulolchilik markazlari va toshdan ishlangan



qurollar bu yerda hunarmandchilik rivojlanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, topilgan bronza va kumush tangalar bu joyning iqtisodiy faoliyat markazi bo'lganidan dalolat beradi.

Mingo'rikdagi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrining shakllanishi aynan shu yerdan boshlangan. Shuning uchun ba'zi olimlar Toshkentning ilk nomi "Mingo'rik"dan kelib chiqqan, degan taxmini ilgari surishgan[2, 35-bet]. Shuningdek, bu yerda topilgan sopol muhrlar va tasvirlar Ipak yo'li orqali kirib kelgan madaniy ta'sirlarni yaqqol ifodalaydi[1, 54-bet].

Toshkent vohasi shaharlarining iqtisodiy va madaniy hayoti (Ipak yo'li tizimida o'rni). Toshkent vohasining qadimiy shaharlarini Ipak yo'li tizimida muhim o'rin tutgan savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida o'rganish O'rta Osiyo iqtisodiy tarixini yoritishda katta ahamiyatga ega. Bu shaharlar nafaqat tranzit nuqtalar, balki ishlab chiqarish, saqlash va qayta taqsimlash markazlari sifatida ham faol bo'lgan[1, 37-bet].

Savdo aloqalari va iqtisodiy tuzilma. Buyuk Ipak yo'li orqali o'tuvchi karvonlarning muhim qismi Toshkent vohasidan o'tgan. Karvonlar Sharqdan – Farg'ona vodiysi va Sharqiy Turkistondan kelib, Toshkent orqali O'tror, So'g'd, Xorazm va undan keyin Kaspiy dengizi bo'ylab G'arbga yo'l olgan[1, 38–39-betlar]. Ushbu geografik joylashuv Toshkent vohasini tabiiy "bozorlar chorrahasi"ga aylantirgan. Y.F. Buryakovning fikricha, Qanqa va Shahruhiyya bu jarayonda "karvon to'xtash, bojxona yig'ish va tovarlarni almashtirish markazlari" sifatida ishlagan[2, 14-bet]. Qazilmalarda topilgan bronza va kumush tangalar, savdo muhrlari, vazn toshlari – bularning barchasi vohada pul munosabatlari va savdo madaniyati shakllanganidan dalolat beradi.

Toshkent vohasida ishlab chiqarilgan buyumlar asosan kulolchilik, metallsozlik, zargarlik va to'qimachilik sohalariga oid bo'lgan. Ayniqsa, Shoshtepa va Mingo'rikda topilgan sopol buyumlar yuqori sifatli kulolchilik an'analari mavjudligini ko'rsatadi[2, 28-bet]. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar nafaqat mahalliy bozor uchun, balki chet mamlakatlarga eksport uchun ham tayyorlangan.

Ijtimoiy tuzilma va boshqaruv tizimi. Choch davrida shaharlarning siyosiy-iqtisodiy boshqaruvi mahalliy hokimlar – "ixshidlar" qo'lida bo'lgan. Ular savdo aloqalarini tartibga solgan, soliqlarni yig'gan va karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlagan. Qanqada topilgan tangalarda "ixshid Choch" degan yozuvlar uchrashi bu hokimlik tizimining davlat darajasida shakllanganidan dalolat beradi[2, 32–33-betlar]. Bu davrda shaharlar o'zaro iqtisodiy jihatdan bog'langan, lekin ma'muriy jihatdan mustaqil bo'lgan. Har bir shahar o'zining ishlab chiqarish va boj tizimiga ega edi. Buryakov bu jarayonni "shahar konfederatsiyasi" deb ataydi, ya'ni iqtisodiy birliklar asosida o'zaro aloqador bo'lgan mustaqil markazlar tizimi[2, 44-bet].

Diniy va madaniy almashinuv. Toshkent vohasi Ipak yo'lining madaniy aloqalar tizimida ham muhim o'rin tutgan. Bu yer orqali zardushtiylik, buddaviylik va keyinchalik islom dini g'oyalari yoyilgan. Arxeologik topilmalar orasida otashkadalarning izlari, budda haykalchalari, so'nggi davrda esa arab yozuvidagi tangalar mavjud[1, 53–54-betlar]. Madaniy almashinuv natijasida san'at, me'morchilik va yozuv madaniyati ham taraqqiy etgan. Qanqa va Shoshtepa hududida topilgan devoriy bezaklar, naqshlar va naqshin sopol idishlar o'sha davrda estetik did va texnik imkoniyatlarning yuqori darajada bo'lganini ko'rsatadi[2, 49-bet].



Karvon hayoti va yo'l infratuzilmasi. Ablat Xo'jayev ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent vohasi orqali o'tgan Ipak yo'li yo'nalishida bir necha karvonsaroy, suv omborlari va qo'riqchi minoralar bo'lgan[1, 47-bet]. Bu inshootlar savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlagan va karvonlarning harakati uchun zarur shart-sharoit yaratgan. Karvon yo'llari atrofida tashkil etilgan qishloq manzilgohlari va dehqonchilik hududlari voha iqtisodiyotining tayanch qismi hisoblangan. Ayniqsa, Sirdaryo bo'yidagi aholi manzilgohlari daryo transporti imkoniyatidan ham foydalangan, bu esa Ipak yo'lining "suv yo'li tarmog'i"ni yuzaga keltirgan[2, 15-16-betlar].

Toshkent vohasi madaniy merosi va arxeologik tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati. Toshkent vohasi O'zbekiston tarixida nafaqat qadimiy savdo yo'llarining markazi, balki arxeologik va madaniy merosning eng boy hududlaridan biri sifatida ham muhim o'rin tutadi. Bu yerda olib borilgan ilmiy izlanishlar O'rta Osiyoda shahar madaniyati rivojining bosqichlarini aniqlash imkonini bergan.

Arxeologik tadqiqotlarning rivoji. Toshkent vohasidagi dastlabki arxeologik izlanishlar XX asrning o'rtalarida boshlangan bo'lib, ularning ilmiy asoslarini Y.F. Buryakov, M.I. Filanovich, A.N. Bernshtam va keyinchalik X.I. Duqelar yaratgan. Ayniqsa, Buryakovning "Канка и Шахрухия" asari Toshkent oazisining shahar madaniyatiga oid kompleks tadqiqot sifatida katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Muallif o'z izlanishlarida Qanqa va Shahruhiyya shaharlarida olib borilgan qazishmalar asosida Choch madaniyatining ijtimoiy, iqtisodiy va dini tizimlarini ilmiy asoslab bergan[2, 3-5-betlar].

Toshkent vohasida topilgan Burg'uluq, Shoshtepa, Mingo'rik, Kanka va Shahruhiyya manzilgohlari bugungi kunda Toshkent shahrining ildizini tashkil etadi. Har bir yodgorlikda topilgan sopol buyumlar, tangalar, metall asboblari, zargarlik bezaklari va arxitektura qoldiqlari bu hududda uzluksiz shahar hayoti mavjud bo'lganini ko'rsatadi[2, 25-28-betlar].

Buryakovning ta'kidlashicha, Qanqa devorlari ichida topilgan sopol muhrlar, haykalchalar va dini marosim buyumlari "Choch aholisi orasida murakkab diniy dunyoqarashlar va madaniy sintez mavjud bo'lganidan dalolat beradi"[2, 49-bet].

Madaniy meros va identitet. Ablat Xo'jayevning "Buyuk Ipak yo'li" asarida qayd etilishicha, Toshkent vohasining arxeologik yodgorliklari nafaqat tarixiy manba, balki xalqimizning madaniy identitetini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Muallif yozadi:

"Har bir qadimiy shahar – o'z davrining ruhi, o'z xalqining mehnat madaniyati, diniy ishonchi va estetik qarashlarini mujassam etgan hayotiy timsolidir"[1, 58-bet].

Bu jihatdan Toshkent vohasining shahar merosi, xususan, Qanqa va Shoshtepa, nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi uchun muhim bo'lgan. Bu shaharlar orqali Ipak yo'lining Sharqiy va G'arbiy tarmoqlari tutashgan, buning natijasida madaniy sintez va o'zaro ta'sir yuz bergan.

Arxeologik topilmalar va ularning tahliliy ahamiyati. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy qazilmalar natijasida Toshkent vohasidan topilgan buyumlar orasida buddaviylik ikonografiyasiga oid haykalchalar, zardushtiylik otashkadalari, hamda islom davriga mansub arab yozuvli tangalar aniqlangan[2, 50-52-betlar]. Bu topilmalar Toshkent



vohasining ko'p diniy madaniyatli tabiatini ko'rsatadi – bu holat Ipak yo'li orqali tarqalgan diniy g'oyalar oqimining jonli dalilidir.

Bundan tashqari, metallurgiya buyumlari va mis eritish pechlari topilishi vohada hunarmandchilik ishlab chiqarishining yuqori darajada rivojlanganini bildiradi. Bu ishlab chiqarish tizimi karvon savdosiga xizmat qilgan, ya'ni Toshkent vohasi o'zini-o'zi ta'minlovchi iqtisodiy markaz sifatida faoliyat yuritgan[2, 46-bet].

Ilmiy izlanishlarning hozirgi ahamiyati. Bugungi kunda Toshkent vohasining qadimiy yodgorliklari – Kanka, Shahruhiyya, Shoshtepa va Mingo'rik – **O'zbekistonning milliy madaniy merosi** sifatida davlat himoyasiga olingan. Bu yodgorliklarda olib borilayotgan tadqiqotlar Toshkent tarixini qayta tiklashda, urbanizatsiya jarayonlarining ildizlarini aniqlashda va madaniy o'zlikni tushunishda muhim o'rin tutadi. Buryakov va Xo'jayevning asarlari asosida shakllangan ilmiy qarashlar bugungi arxeologiya, tarixshunoslik va madaniyatshunoslikda **Toshkent vohasi – Ipak yo'lining yuragi** degan konsepsiyani ilmiy asos bilan mustahkamladi[1, 61-bet].

XULOSA.

Toshkent vohasi Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin tutuvchi mintaqaga bo'lib, u qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi eng muhim yo'l – **Buyuk Ipak yo'lining** strategik markazlaridan biri sifatida shakllangan. Arxeologik va yozma manbalar shuni ko'rsatadiki, bu vohada joylashgan **Qanqa, Shahruhiyya, Shoshtepa va Mingo'rik** singari shaharlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro savdo, siyosiy va madaniy aloqalarda faol ishtirok etgan.

Toshkent vohasi tabiiy-geografik jihatdan qulay sharoitga ega bo'lgan – unumdor yerlar, daryo tizimi, karvon yo'llariga yaqinlik – bu omillar shahar madaniyatining erta shakllanishiga zamin yaratgan. **Qanqa** va **Shahruhiyya** shaharlarining rivojlanishi vohaning siyosiy markazga aylanishini ta'minlagan, **Shoshtepa** va **Mingo'rik** esa urbanizatsiya jarayonining davomiyligini ko'rsatgan.

Ipak yo'li Toshkent vohasiga nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va dini yangiliklarni ham olib kirgan. Bu yerda **zardushtiylik, buddaviylik**, va keyinchalik **islom** dini tarqalgan, bu esa vohaning ko'p madaniyatli muhitga ega bo'lganini ko'rsatadi. Hunarmandchilik, metallsozlik, kulolchilik va zargarlik sohalarining rivoji Toshkent vohasining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlab, uni Ipak yo'lining asosiy ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylantirgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan tangalar, sopol buyumlar, muhrlar va dini yodgorliklar Toshkent vohasi hayotining serqirra ekanini, bu hududda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy tizim mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Buryakov va Xo'jayevlarning ilmiy izlanishlari Toshkent vohasining tarixini chuqurroq o'rganish imkonini bergan bo'lib, ularning asarlari bugungi kunda ham Ipak yo'li va shahar madaniyati tarixiga oid asosiy manbalar sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Toshkent vohasi – **Buyuk Ipak yo'lining yuragi**, Sharq va G'arbni tutashtirgan, madaniyatlar chorrahasi, ilm-fan, savdo va san'at rivojlangan markaz sifatida nafaqat o'z davrining, balki butun Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi hisoblanadi



References:

1. Ablat Xo'jayev. *Buyuk Irak yo'li*. — Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2003.
2. Буряков, Ю.Ф. *Канка и Шахрухия. Древние города Чача и Илака на Великом шелковом пути*. — Ташкент: Фан, 2011.
3. Буряков, Ю.Ф. По древним караванным путям Ташкентского оазиса. Ташкент, "Фан", 1978.